
MARG'ILONDAGI 5 TA KO'CHANING ELEKTR TARMOQLARI YANGILANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25-oktyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-408 sonli qaroriga asosan, Marg'ilon shahrining "Go'riavval" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi iste'molchilarning elektr ta'minoti yaxshilanmoqda.

Ayni vaqtda mahallaning "Xonaqo", "Hunarmandlar", "Yangi yo'l", "Ozoda" hamda "Sarbon" ko'chalariga zarur temir-beton tayanchlar olib kelinib, o'rnatish ishlari bajarilmoqda.

2023-01-31 09:29:45